

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI**

BOYCHAYEVA DURDONA RASULJON QIZI

**O'RTA ASRLAR INGLIZ RITSARLIK ROMANLARI TEMATIKASI
VA JANR XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Amerika, Avstraliya va Yevropa xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

Boychayeva Durdona Rasuljon qizi

O‘rta asrlar ingliz ritsarlik romanlari tematikasi va janr xususiyatlari 3

Бойчаева Дурдона Расулжон кизи

Тематика и жанровые особенности средневековых английских рыцарских романов 27

Boychaeva Durdona Rasuljon kizi

Subject matters and genre features of Medieval English chivalric romances..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT
CHET TILLARI INSTITUTI**

BOYCHAYEVA DURDONA RASULJON QIZI

**O'RTA ASRLAR INGLIZ RITSARLIK ROMANLARI TEMATIKASI
VA JANR XUSUSIYATLARI**

10.00.04 –Amerika, Avstraliya va Yevropa xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3783 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Akmal Xamidjonovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To'rayeva Bahora Baxriddinovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on shahri, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdhti@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on shahri, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdhti@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Soʻnggi paytlarda jahon adabiyotshunosligida xalq ogʻzaki ijodi va undan keyingi ilk yozma badiiy matnlar soʻnggi paytlarda eng koʻp oʻrganiladigan tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bu ogʻzaki va yozma obidalarning oʻz tarkibida takrorlanmas madaniy va milliy belgilarni mujassam etishidir. Xususan, ingliz ritsarlik romanlari tarkibida yashiringan bunday xususiyatlar ham ingliz xalqining maʼnaviy boyliklarini, madaniy merosini yanada chuqurroq oʻrganishga yordam beradi va bu millatning maʼnaviy qiyofasini namoyon etadi. XX asr birinchi choragidan boshlab adabiyotshunos olimlar Yevropa ritsarlik romanlarining genezisi, morfologiyasi, shakli, sikllariga aniqlik kiritish, ularning xronologiyasini tuzish borasida tadqiqotlar olib borishni boshladilar va bu masalada bir qancha natijalarga ham erishildi. Biroq ritsarlik romanlarining tematikasi hamda ularning janr xususiyatlari yetarli darajada oʻrganilmadi va hanuz bu masala adabiyotshunos olimlarning eʼtiboridan chetda qolmoqda. Oʻrta asrlar ingliz adabiyoti, ayniqsa, ritsarlik romanlarining keyingi davrlarda yuz bergan Uygʻonish davri yozuvchilari ijodiga taʼsirining beqiyos ekani ularning turli plandagi tahlilini amalga oshirish zaruriyatini belgilab beradi. Shunday ekan, ingliz ritsarlik romanlari tematikasini va janr xususiyatlarini hamda badiiy-estetik vazifalarini tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Dunyo adabiyotshunoslik ilmida ritsarlik romanlaridagi turli motivlar dastlab etnografik, diniy, psixologik nuqtai nazardan oʻrganila boshlangan va bu borada muayyan natijalarga erishilgan. Mamlakatimizda esa ritsarlik romanlari bilan tengdosh boʻlgan xalq ogʻzaki ijodi namunasi – dostonlardagi turli motivlarning tarixiy-mifologik ildizlarini ochib berish, mifologik tasavvurdan poetik tafakkurga oʻtish jarayonida ularning qanday badiiy-estetik vazifalarni bajarishini aniqlash kabi masalalar boʻyicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda boshqa xalqlar adabiy ijodining oʻlmas namunalariga yangicha yondashish, ularni milliy va tarixiy qadriyatlarimiz nuqtai nazaridan tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Zero, hech bir millat yoki xalqning maʼnaviyatini uning tarixi, oʻziga xos urf-odat va anʼanalari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib boʻlmaydiki, bu ularning adabiy ijodini turli planlarda, ham xususiy jihatdan, ham umumiy jihatdan oʻrganish vazifasini ilm-fan oldiga dolzarb vazifa sifatida qoʻyadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarda Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi” qarorlari va mavzuga oid boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda, innovatsion

g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. G‘arb adabiyotshunosligida A.X.Bilings, I.Bryuer, J.A.Berou, P.Boytoni, J.D.Bryus, L.Remsey kabi bir qator adabiyotshunos olimlarning ilmiy ishlari o‘rta asrlar ingliz ritsarlik romanchiligi tadqiqiga bag‘ishlangan¹. Shuningdek, I.Bishop, M.U.Blumfeld, M.Borof² kabi tadqiqotchilar ham o‘z maqolalarida shu davrga mansub “Ser Gaveyn va Yashil Ritsar” romanini tadqiq etganlar.

Rus adabiyotshunosligida O.L.Moshanskaya³ ilmiy ishini hisobga olmaganda XIII-XIV asrlar ingliz ritsarlik romanlari poetikasi deyarli o‘rganilmagan. Bu davrdagi ayrim romanlarga tadqiqotga tortilgan. Xususan, “Ser Gaveyn va Yashil Ritsar” romanining lisoniy xususiyatlari va syujet hamda kompozitsiyasi masalalari M.V.Overchenko, E.Y.Pyatakova, M.A.Volkonskaya, N.V.Reznikova, M.K.Popova ilmiy tadqiqotlarida⁴, hamda G.V.Kolganova⁵ maqolalarida tadqiq etilgan. V.I.Matuzova hamda M.K.Popova⁶ maqolalarida esa “Arturning o‘limi” va “Marvarid” ritsarlik romanlari tadqiq etilgan. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, G‘arb adabiyotshunosligida ham, rus adabiyotshunosligida ham ritsarlik romanlari tematikasi va ularning janr xususiyatlari hali monografik planda tadqiq etilmagan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rta asrlar ingliz ritsarlik romanchiligi hali tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Bu davrga mansub hisoblanmish Jeofri Choser hayoti va ijodi, uning ayrim asarlari o‘zbek kitobxon va o‘quvchilariga tanish bo‘lishiga qaramasdan, uning zamondoshlari qalamiga mansub romanlar hozircha e’tibordan chetda qolib

¹ Billings A.H. A Guide to the Middle English Metrical Romances. New York: Russel and Russel, 1967; Brewer E. Sir Gawain and the Green Knight: Sources and Analogues. 2nd ed. Cambridge: D.S. Brewer, 1992; Burrow J.A., Turville-Petre Th. A Book of Middle English. 2nd ed. Oxford: Blackwell Publishers, 2001; Boitani P. English medieval narrative in the XII-XIV c. Cambridge. 1982; Bruce J.D. The Evolution of Arthurian Romance: from the Beginnings down to the Year 1300. Geneva. 1978; Ramsay L. Chivalric Romances: Popular Literature in Medieval England. Indiana, 1983.

² Bishop I. Time and Tempo in Sir Gawain and the Green Knight // Neophil. 1985. Vol. 69, № 4. P. 611–619.

Bloomfield M.W. Sir Gawain and the Green Knight: An Appraisal // PMLA. 1961. Vol. 76, № 1. P. 7–19.

Borroff M. Sir Gawain and the Green Knight. A Stylistic and Metrical Study. New Haven–London: Yale University Press, 1962.

³ Мощанская О.Л. Народно-поэтическое творчество Англии средних веков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. М., 1988.

⁴ Оверченко М.В. Английский рыцарский роман 14 века «Сэр Гавейн и Зелёный рыцарь»: проблемы поэтики: дисс.на соиск.учён.степени канд.филол. наук: - Москва, 1999. – 166 с; Пятакова Е.Ю. Аллитерационное возрождение и творчество поэта “Гавейна”: дисс.на соиск.учён.степени канд.филол. наук: - Воронеж, 2000. – 233 с; Волконская М.А. Язык среднеанглийской поэмы «Сэр Гавейн и Зелёный рыцарь»: традиционные поэтизмы и заимствования в их функциональном взаимодействии: дисс.на соиск.учён.степени канд.филол. наук: - Москва, 212. – 346 с; Резникова Н.В. Роман «Сэр Гавейн и Зеленый Рыцарь»: к проблеме соотношения стиха и языка в среднеанглийской поэзии: дис. ... канд. филол. наук. М., 1997; Попова, Мария Константиновна. Аллегория в английской литературе средних веков : автореферат дис. ... доктора филологич. наук : 10.01.05 / Гос. ун-т.- Санкт-Петербург, 1993.- 39 с.

⁵ Колганова Г.В. Куртуазное мировоззрение и христианские традиции в «Сэре Гавейне и Зеленом рыцаре». // Западноевропейская средневековая словесность. М., 1985. - С. 91-92.

⁶ Матузова В.И. Трансформация куртуазных идеалов в романе Т. Мэлори «Смерть Артура». // Научные доклады высшей школы. Филологические науки, № 2, 1973. - С. 22-31; Попова М.К. Художественный образ в средневековой английской литературе: историческая модификация исторической категории. // Традиции и взаимодействия в зарубежных литературах. Пермь, 1996; Попова М.К. Анонимная английская поэма XIV в. «Жемчужина» и традиции средневековой литературы. // Пуришевские чтения. Материалы научной конференции. М., 1997. - С. 38.

kelmoqda. Mazkur tadqiqotimiz ana shu bo'shliqni bir oz bo'lsada to'ldirishga qaratilgan ilk urinishlardan hisoblanadi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya mavzusi Namangan davlat chet tillari institutining «Xorij adabiyotini o'rganish va tarjimashunoslik masalalari hamda chet til ta'limi muammolari» mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlari tematikasi va janr xususiyatlari, kompozitsion va badiiy-estetik vazifalari, poetik xossalari, ma'no qirralari mohiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIII-XIV asrlarda Angliyada tarixiy va adabiy shart-sharoitlarni o'rganish;

Ingliz ritsarlik romanlari xronologiyasi, shakllari va sikllarini aniqlash;

Ingliz ritsarlik romanlarining mavzu ko'lami hamda g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etish;

Ingliz ritsarlik romanlarining janr xususiyatlarini ochib berish;

Ingliz ritsarlik romanlarida epik qahramon tasvirining o'ziga xosligini ifodalashda lisoniy va poetik vositalarning rolini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'rta asrlarda Angliyada yaratilgan "Angliya mavzusi" va "Britaniya mavzusi"dagi ritsarlik romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlari tematikasi va janr xususiyatlarining lingvopoetik tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy hamda etnofolkloristik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Angliya mavzusida yaratilgan ritsarlik romanlari tematik jihatdan bir-biridan katta farq qilmasligi, ularning syujet liniyasi va kompozitsiyasi shakllanishida haydaliq, safar, sinov, qaytish, nikoh kabi bir-biriga o'xshash motivlar asosiy rol o'ynagani dalillangan;

Britaniya mavzusidagi ritsarlik romanlarining shakllanishida skandinav xalqlari og'zaki ijodining ta'siri katta bo'lgani, qirol Artur obrazi o'zida Gerakl kabi yunon, Konxobar va Bran kabi kelt mifologiyasi qahramonlarining ko'plab xususiyatlarini mujassam etgani aniqlangan;

Qirol Artur haqidagi afsonalarning shakllanishida keltlar afsonalari bilan bir qatorda xristian dini an'analarining ham o'rni ulkan ekani, Artur afsonasining ijtimoiy-madaniy sabablar ta'sirida o'zgarishi bilan Artur obrazining o'zi ham yangi ma'no kasb etishi isbotlangan;

ingliz ritsarlik romanlarning mualliflari qahramonlarning ichki qiyofasini yoki tashqi ko'rinishini emas, balki ularning harakatlarini, nutqlarini va his-tuyg'ularini ifodalovchi faktlarni bayon qilishlari, ular uchun ritsarlarining jasorati va buyukligi, ayollarning go'zalligi va nazokati, qirol va shahzodalarning kuch-qudrati, dushmanlarning zaif va qo'rqqoqligini o'z harakatlari va so'zlari bilan ko'rsatish muhimroq ekani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlari tematikasi va janr xususiyatlarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar ingliz adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, Zamonaviy Angliya-Amerika adabiyoti, Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, Qiyosiy adabiyotshunoslik, Adabiy oqimlar taraqqiyoti, mifologiya, eposshunoslik, lingvofolkloristika kabi fanlar bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqotning ingliz ritsarlik romanlari tematikasi, janr xususiyatlari, syujet tizimi, narratologik va g'oyaviy-badiiy xususiyatini o'rganishda ishonchli manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

ingliz ritsarlik romanlaridagi qahramonlik, vatanparvarlik, matonat, sabr-bardosh va sadoqat g'oyalari bugungi kun o'quvchisining dunyoqarashini o'stirish, tafakkurini shakllantirishda hamda jamiyatning axloqiy-ma'naviy takomilida muhimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy kabi usullar bilan asoslangani, ingliz ritsarlik romanlari genezisi, janr xususiyatlari va badiiyatini izohlashda ingliz adabiy jarayonining turli davrlariga oid ishonchli manbalarga tayanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar ingliz ritsarlik romanlari poetikasini tadqiq etish ufqlarini kengaytiribgina qolmay, uning tarixiy taraqqiyotida yuz bergan badiiy-semantik o'zgarishlar bo'yicha mavjud ma'lumotlarni to'ldiradi va boyitadi. Ingliz ritsarlik romanlarining narratologik va janr xususiyatlari hamda asar syujetini shakllantirishdagi poetik xossalarga oid qarashlar eposshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining rivojiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ingliz ritsarlik romanlarining narratologik va janr xususiyatlari, mavzu ko'lami hamda poetik xususiyatlariga oid qarashlar ingliz xalq og'zaki badiiy ijodi, qolaversa, yozma adabiyoti bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalarining yanada mukammallashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlari tematikasi va janr xususiyatlarini tadqiq etish orqali olingan xulosalardan:

Angliya mavzusida yaratilgan ritsarlik romanlari tematik jihatdan bir-biridan katta farq qilmasligi, ularning syujet liniyasi va kompozitsiyasi shakllanishida haydalish, safar, sinov, qaytish, nikoh kabi bir-biriga o'xshash motivlar asosiy rol o'ynagani haqidagi ilmiy xulosalardan 2023-2024 yillarda bajarilgan Erasmus+ EMPOWER - 101129076 raqamli loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi Namangan davlat chet tillar institutining 2024 yil 30 oktyabrdagi 1437-03-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur dissertatsiya materiallari va natijalaridan chiqarilgan nazariy xulosalar ingliz ritsarlik romanlari poetikasini tadqiq etish ufqlarini kengaytiribgina qolmay, uning tarixiy taraqqiyotida yuz bergan badiiy-semantik o'zgarishlar bo'yicha

mavjud ma'lumotlarni to'ldiradi va boyitadi. Ingliz ritsarlik romanlarining narratologik, janr xususiyatlari va asar syujetini shakllantirishdagi poetik xossalarga oid qarashlar eposshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining rivojiga xizmat qiladi;

Britaniya mavzusidagi ritsarlik romanlaridagi qirol Artur afsonalarining shakllanishida keltlar afsonalari bilan bir qatorda xristian dini an'analarning ham o'rni ulkan ekani, Artur afsonasining ijtimoiy-madaniy sabablar ta'sirida o'zgarishi bilan Artur obrazining o'zi ham yangi ma'no kasb etishi, tadqiqotning ingliz ritsarlik romanlari tematikasi, janr xususiyatlari, syujet tizimi, narratologik va g'oyaviy-badiiy xususiyatini o'rganishda ishonchli manbalardan biri bo'lib xizmat qilishiga oid ilmiy natijalaridan Andijon davlat universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan "№ IL 402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik lug'at ishlab chiqish" davlat innovasion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar Vazirligining 2024 yil 10 oktyabrdagi 39-04-897-son ma'lumotnomasi). Natijada O'rta asrlar Britaniya adabiy jarayonlari bilan bog'liq muayyan atamalarning ilmiy izohlari hamda amaliyotga tatbiq etilishi imkoniyatlari ta'minlangan;

ingliz ritsarlik romanlarning mualliflari qahramonlarning ichki qiyofasini yoki tashqi ko'rinishini emas, balki ularning harakatlarini, nutqlarini va his-tuyg'ularini ifodalovchi faktlarni bayon qilishlari, ular uchun ritsarlarining jasorati va buyukligi, ayollarning go'zalligi va nazokati, qirol va shahzodalarning kuch-qudrati, dushmanlarning zaif va qo'rqqoligini o'z harakatlari va so'zlari bilan ko'rsatish muhimroq ekani, ingliz ritsarlik romanlaridagi qahramonlik, vatanparvarlik, matonat, sabr-bardosh va sadoqat g'oyalari bugungi kun o'quvchisining dunyoqarashini o'stirish, tafakkurini shakllantirishda hamda jamiyatning axloqiy-ma'naviy takomilida muhimligi to'g'risidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DM tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Jahon adabiyoti" nomli dasturlar ssenariysining 2024 yil fevral va may sonlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024 yil 16 iyundagi 04-36-737-son ma'lumotnomasi). Natijada o'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlarining janr xususiyatlari, poetikasi va ularning bugungi zamonaviy adabiyot taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida foydali ma'lumotlar bilan ushbu ko'rsatuvlarning mazmuni ilmiy va amaliy jihatdan boyigan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 8 ta xalqaro va 2 ta respublika va 2 ta huddiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiya tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 143 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi O‘rta asrlarda Angliyadagi tarixiy va adabiy shart-sharoitlar tahliliga bag‘ishlangan. Uning “Ritsarlik romanlari xronologiyasi va janr xususiyatlari” deb nomlangan 1-faslida ingliz ritsarlik romanlarining kelib chiqishi va janr xususiyatlari masalasi muhokama etilgan.

O‘rta asr romantik poeziyasida inglizlarning nazmda yozilgan romanlariga doimo kamtarin o‘rin berilgan bo‘lib, nisbatan kamroq e‘tibor qaratilgan. Ritsarlik davridagi feodal jamiyati ideallarining ifodasi sifatida u Fransiya va Germaniyaning she‘riy romanlaridan pastroq pog‘onada turadi. Hatto o‘zining eng yaxshi namunalarida ham bu romanlar ritsarlikka doir bo‘lgan ayrim xususiyatlarni yo‘qotadi. Biroq shu bilan birga ingliz ritsarlik romanlari Fransuz va Germanlarning ritsarlik romanlariga nisbatan birmuncha xalqchil xususiyatga ega bo‘lib, bu uning oddiy xalq orasidan kelib chiqishining tabiiy natijasidir.

Ilk ingliz romanlari umuman o‘zlarining fransuzcha namunalari darajasiga yetib bora olmagan. Fransuzlar nafaqat ritsarlik romanlarini yaratishdi, balki romanlardagi syujet va fabulalarni noziklik bilan va uyg‘unroq taqdim eta olishdi. Ko‘pincha, qisqartirilgan inglizcha shakllari kambag‘al, oddiy va noto‘liq mantiqiy tuzilishga egaligi bilan ajralib qoldi. Garchi ingliz ritsarlik romanlari ajoyib fazilatlarga ega, ommabop bo‘lsa-da, bu ulardagi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklarni bosib keta olmaydi.

Ammo ingliz ritsarlik romanlari qahramonlarining tabiat qo‘ynidagi, yashil o‘rmonlardagi va ov paytidagi zavq-shavqlari bizni hayratda qoldiradi. Ularning g‘ayratli, ibtidoiy kuchi haqida mamnuniyat bilan eslaymiz. Roman qahramonlarining bu qat‘iyligi va ibtidoiy kuchi chuqur his-tuyg‘ularni istisno qilmaydi, albatta. Shunday qilib, ingliz latofati, fransuzlarnikiga qaraganda kamroq nafis bo‘lsa-da, lekin sun‘iy emas edi; ko‘proq ehtirosli bo‘lsa-da, lekin shahvoniylikdan yiroq edi.

Normandlar istilosidan keyingi birinchi yuz yillik anglo-sakson adabiyotining chuqur tanazzul davri bo‘lib qoldi. Bu davrda adabiy anglosakson (vesseks) tili mamlakatda nafaqat davlat tili, balki yozuv tili bo‘lish vazifasini bajarishdan ham to‘xtadi. Anglo-sakson tili tez o‘zgara boshladi, borgan sari bir qancha mahalliy dialektlarga bo‘linib ketdi.

XI asrning ikkinchi yarmi va butun XII-XIII asrlar ingliz adabiyotining rivojlanishi uchun noqulay davr bo‘lib qoldi. Bu asrlarda birorta ham yirik adabiy arbob yoki birorta ham salmoqli adabiy ijodkorni yetishib chiqmadi hisob.

Norman istilosiga qadar ingliz jamiyatidagi anglo-sakslarlarda feodal tuzumning ayrim xususiyatlari tufayli qit’a ritsariga mos keladigan ijtimoiy tip hali

rivojlanmagan edi. Ko‘proq patriarxal va qat‘iy, anglo-sakson feodal mulkchilik hayoti XI asrdagi qit‘a qal‘alari hayotidan farq qilardi. Dunyoviy xulq-atvor odoblari sifatida qit‘ada allaqachon shakllana boshlagan Kurtuaz (nafis, muloyim, xushmuomala ma‘nosida. “Kurtuaz adabiyoti – Yevropa o‘rta asr ritsarlik romanlari va poemalari”) bu yerda hali shakllanmagan edi.

Ritsarlik tabaqasining o‘zi ham, uning xulq-atvori, saroy madaniyati ham normand bosqinchilari tomonidan Angliyaga begona fransuz tili (aniqrog‘i, eski frantsuz tilining norman dialekti bilan birga) olib kelingan. Bu holat Norman bosqinchilari davrida ham saqlanib qolgan Anglo-Sakson madaniyatining ushbu fransuz yangiliklaridan ataylab ajratib qo‘yilishiga yordam berdi. Kelib chiqishi ingliz bo‘lgan mahalliy feodallar yangi fransuzlarning avlodlari bo‘lmish feodallar bilan o‘z huquqlarini asta-sekin tikladilar. Faqat Richard I davrida, XII asr oxiriga kelibgina bu jarayon biroz tezlashdi.

Natijada, qadimgi fransuz va provans tillarining turli lahjalaridagi saroy lirikasi va dostonlari kabi xarakterli hodisalar uzoq vaqt davomida fransuz tilida so‘zlashuvchi, mohiyatan begona feodal doiraning mulki bo‘lgan, ammo ular Anju monarxiyasi qirollari uchun tayanch bo‘lib xizmat qilgan dunyoviy va cherkov zodagonlarining qatlamlari bo‘lgan eng nufuzli doiralarni qamrab olgan. Vaziyat faqat XIII asrning boshlariga kelib o‘zgara boshladi. Taxminan 1205 yilda Layamon ismli bir ruhoniy bir qator manbalarga, birinchi navbatda Monmutlik Jefrining mashhur lotincha asariga asoslangan xolda "Brutus" nomli katta epik to‘plamni yaratdi.

Layamonning “Brut” qahramonlik she‘riy asari yarim yilnoma, yarim roman shaklida bo‘lib, u inglizlarning ajdodlari bo‘lmish britaniyaliklarning afsonaviy ajdodi Eney avlodining Britaniya qirg‘oqlariga kelib tushishidan to inglizlar va anglo-sakson bosqinchilari o‘rtasidagi ko‘p asrlik kurashning fojiali yakunigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu hikoyada qirol Artur bilan bog‘liq bo‘lgan bir guruh syujetlar katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, Layamon ular orqali inglizlarni nazarda tutadi. Ular bilan u o‘z xalqining qahramonlik an‘anasini boshlaydi, bunday an‘ana nafaqat normanlar va bretonlar, balki orol aholisi orasida ham borligini isbotlash istagi bilan boshlanadi. Asarning antinorman xarakterini she‘rning qadimgi fransuz tilida emas, balki XIII asrda ingliz tilida yozilganligi ham kuchaytiradi. U inglizcha, alliteratsion usulda yozilgan. Albatta, Layamon o‘rta asr fransuz she‘riyatining kuchli ta‘siri ostida bo‘lgan va bu nafaqat syujetning Vasga ma‘lum darajada bog‘liqligida, balki ingliz tilida yozilganiga qaramay, she‘riy tuzilish tabiatida ham namoyon bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, Layamonning “Brut” asari ingliz tilidagi ritsarlik romanining dastlabki shakli bo‘lib, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

XIII asrda yana bir nechta ingliz ritsarlik romanlari paydo bo‘ldi. To‘g‘ri, ular ham avvalgi (XII asr) norman versiyalariga asoslangan edi, ammo ulardagi voqea-hodisalar ancha uzoq o‘tmishdagi ingliz-daniya syujetlariga borib taqalardi. Shubhasiz, bu ingliz-daniya qahramonlik sarguzasht afsonalari 1066 yilgacha paydo bo‘lgan, birinchi bo‘lib ingliz muhitida ma‘lum bo‘lgan va asrlar davomida og‘zaki shaklda mavjud bo‘lib kelgandi. Britaniyani normanlar istilo etgach, ular Norman sayyor qo‘shiqchilarining mulkiga aylandi.

Bu romanlar orasida “Qirol Xorn” (taxminan 1225-yil) va “Havelok qo‘shig‘i” (yoki “Daniyalik Havelok”, XIII asrning ikkinchi yarmi) ayniqsa ahamiyatlidir.

Ingliz ritsarlik romanlari uch asr – XIII-XV asrlar davomida yaratilgan. Ritsarlik romanlarining yaratilish davriga qarab, ana shu uch asrni to‘rt davrga bo‘lish mumkin. O‘z o‘rnida bu to‘rt davr ham ma‘lum ma‘noda ikki qismga bo‘lib o‘rganilishi mumkin bo‘lib, 1350 yildan oldin yaratilgan asarlarni “ilk” ritsarlik romanlari, undan keyin yaratilganlarini esa “keyingi” ritsarlik romanlari deb ham yuritiladi.

Inglizlar zaminida 1100-1250 yaratilgan ritsarlik romanlarini o‘tish davri romanlari deb ataladi. Bu davrda yaratilgan ritsarlik romanlarida diniy masalalarga ham alohida urg‘u berilgan bo‘lib, unga misol qilib faqatgina “Qirol Xorn” romanini kiritish mumkin.

1250-1350 yillarda yaratilgan ritsarlik romanlari ilk romanlar deb ataladi. Bu davrda inglizlar normand zodagonlari bilan faol aloqaga kirishib, ularning madaniyati, xususan, adabiyotini ham qabul qila boshladilar.

1350-1400 yillar esa ingliz ritsarlik romanlari uchun Uyg‘onish davri oldi vaqti deb ataladi. Bu davr siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi demokratik harakatlar hamda ingliz tilining fransuz tiliga nisbatan kuchayib, saroy, siyosat va adabiyot tiliga aylanishi natijasida milliy o‘zlikni anglash kabi xususiyatlari bilan xarakterlidir. Bu davrda Robin Gud haqidagi balladalar yaratildi.

XV asr Lankasterlar va Yorklar davri bo‘lib, o‘rta asrlar an‘analarining va Uyg‘onish davri uchqunlarining asta-sekinlik bilan yo‘qolib borishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda eski fransuz romanlari tarjimasiga qattiq e‘tibor qaratila boshlandi.

Ritsarlik romanlarining bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Qahramonlik va sadoqat: Ritsarlik romanlarida qahramonlar odatda sadoqat, mardlik, shon-shuhrat va jasorat belgilariga ega. Ular ko‘pincha o‘z vataniga, muhabbatlariga yoki lordlariga sadoqat ko‘rsatadi.

2. Sevgi-muhabbat masalasi: Ushbu janrda ko‘pincha sevgi hikoyalari muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar sevishganlarini himoya qilish, ularni qutqarish yoki ularning sevgisini qozonishga harakat qilishadi.

3. Uzoq safarlar va sarguzashtlar: Ritsarlik romanlarida qahramonlar ko‘pincha uzoq safarlarga chiqadilar, ma‘lum bir maqsadga erishish uchun yurtlarini tark etadilar. Bu safarlar ko‘pincha qiyin va xavfli bo‘ladi.

4. Uytirilgan janglar va jangovar musobaqalar: Ritsarlik romanlarida janglar, musobaqalar va kurashlar muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar o‘z maqsadlariga erishish uchun raqobatchilar bilan kurashishadi.

5. Epik elementlar: Ritsarlik romanlarida epik unsurlar ko‘p. Hikoyalar ko‘pincha madaniy qahramonlar, tarixiy shaxslar yoki afsonaviy mavjudotlar atrofida quriladi.

6. Mifologik va mistik unsurlar: Ba‘zi ritsarlik romanlarida mifologik elementlar va mistik mavjudotlar, masalan, jodugarlar yoki fantastik hayvonlar qatnashishi mumkin.

7. Ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar: Janr ijtimoiy va axloqiy tamoyillarni o'rganadi, qahramonlarning faoliyati orqali yaxshi va yomon, adolat va beqarorlik kabi tushunchalarni taqdim etadi.

Ritsarlik romanining markaziy qahramoni ritsar odob me'yorlari bo'yicha ideal yoki idealga yaqin qahramon hisoblanadi. Ritsar asar davomida doim harakatda namoyon bo'ladi: u yolg'iz yoki bir-ikki hamroh bilan sayohatga chiqadi va turli jasoratlarni amalga oshiradi. Ritsarning majburiy yoki ixtiyoriy sayohatga chiqishi asarning tuzilishini tartibga soluvchi asosiy nuqtadir, zero ritsarning harakatlari davomida har qanday epizodlarda uning ritsarlik fazilatlarini namoyish qilish va uning jasoratlari haqida gapirish uchun imkoniyatlar ochiladi. Ritsarlik romanlarida bosh qahramon figurasi hali individuallashtirilmagan, chunki bosh qahramonlarning ismlari romandan romanga o'zgaradi, lekin ularning ideallashtiriluvi ularni bir-biriga o'xshash qahramonga aylantiradi. Ritsarlik romanlarida bosh qahramon ko'proq syujet tuzilishi funksiyasi sifatida namoyon bo'ladi, chunki butun hikoya uning harakatlari atrofida quriladi, ammo qahramonlik eposidagi ritsarlardan farqli o'laroq ritsarlik romanlari qahramonlari jasorat qilish uchun shaxsiy motivlarga ega bo'ladi. Epos qahramonlari mamlakat, xalq, urug', diniy e'tiqod nomidan kurashga otlansa, ritsarlik romanlari qahramonlari ma'lum bir xonim nomi bilan yoki shaxsiy shon-sharaf nomi bilan kurashadi.

Ritsarlik romanining qahramonlik eposidan ajratib turuvchi eng muhim jihati qahramonlar, syujetlar, badiiy vositalar tanlashda ma'lum bir pozitsiyaga ega bo'lgan muallifning mavjudligidir.

Bobning 2- fasli ingliz ritsarlik romanlarining tematik tasnifi, mavzu ko'lami tadqiq etilgan. XII asrda yashab, ijod etgan fransuz shoiri Jan Bodel tomonidan O'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlari mavzu jihatdan uchta kategoriya bo'linadi:

1. Fransiya mavzusi; 2. Britaniya mavzusi; 3. Rim mavzusi.⁷

Jan Bodel tasnifi hatto oddiy o'quvchiga ham romanlar mazmuniga asoslangan holda oson tushunarli: "Fransiya mavzusi" fransuz milliy tarixi va afsonalariga bag'ishlangan; "Britaniya mavzusi" qirol Artur mavzusi bilan bog'liq; "Rim mavzusi" esa mavzu sifatida klassik qahramonlarni tanlaydi. Ushbu uchta "mavzu"ga tegishli romanlarning aksariyati fransuz tilidan o'rta asrlar ingliz tilisiga tarjimalarda mavjud va ularning ko'pchiligi, keyinchalik bir nechtasini hisobga olmaganda, hech qachon ingliz tilida yozilganligini da'vo qilinmagan. Ular dastlab ingliz tilida yozilmagan hatto Anglo-Sakson yozma manbalaridan o'zlashtirilmagan edi.

"Fransiya mavzusi" mavzular ichida eng qadimiysi bo'lib, u Buyuk Karl va uning ritsarlari faoliyatlari bilan bog'liq. Buyuk Karl haqidagi barcha ritsarlik romanlarini ikki guruhga bo'lish mumkin - Ferumbras guruhi va Otuel guruhi. Ferumbras guruhi ikkita asar – "Rimning qulashi" va "Fierabras" ritsarlik romanlaridan iborat. Otuel guruhida beshta roman mavjud. Ularning faqat uchasi Otuel hikoyasiga haqiqatda mos keladi. Bu uchta hikoya ba'zi farqlar bilan bir xil hikoyani tasvirlaydi.

⁷ Schofield W.H. English literature from the Norman Conquest to Chaucer. London: McMillan Co., 1906. – P.145.

"Britaniya mavzusi" qirol Artur hikoyalariga asoslangan. Artur haqidagi romanlarining aksariyati ingliz yilnomachilari asarlariga emas, balki Breton afsonalariga asoslangan. Qirol Artur mavzusidagi ingliz ritsarlik romanlarida o'zidan avvalgi fransuz versiyalarining ta'siri yaqqol seziladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ingliz romanchilari, ayrimlarini hisobga olmaganda, ilk fransuz yozuvchilari asarlaridagi kabi ruhni jonlantirib berolmadilar. Biroq shunday bo'lsa-da, qirol Artur haqidagi ingliz ritsarlik romanlarining ingliz adabiyotidagi o'rnini beqiyosdir.

Ushbu romanlar mualliflaridan Kretyen de Truani ta'kidlash kerakki, u o'z asarida bosh qahramon hayoti bilan bog'liq bir yoki bir nechta epizodlarnigina tasvirlaydi va shu orqali biografik romanlardan uzoqlashdi. Qirol Artur haqidagi keyingi ritsarlik romanlari Kretyen de Trua tomonidan belgilab berilgan yo'nalishni davom ettirishadi. Shuning uchun deyarli barcha ingliz ritsarlik romanlarida qirol Arturning butun hayoti emas, balki epizodik ko'rinishlari tasvirlangan, xolos. XIV asrning ikkinchi yarmida yozilgan Artur nomli qisqa she'r bundan mustasno. Aksariyat romanlar Arturning faoliyati yoki Dumaloq Stol ritsarlari boshdan kechirgan sarguzashtlar haqida so'zlaydi. Ayrim romanlarda esa Muqaddas Qadah tarixi kabi mavzular ham yoritilgan.

Klassik hikoyalarga asoslangan o'rta asr ishqiy romanlari mavzulari asosan Aleksandr Makedonskiy, Troya urushi, Fiva qamali va Eneyning sarguzashtlariga bag'ishlangan. Ushbu romanlar "Rim mavzusi"ni tashkil etadi. Bu mavzularning barchasi XII asr fransuz romanlarida yoritilgan. Biroq, klassik mavzularga asoslangan ingliz romanlarida asosan Troya va Aleksandr haqidagi hikoyalarni tasvirlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Jan Bodel tilga olmagan yana bir muhim mavzu mavjud bo'lib, unga alohida romanlar guruhini kiritish mumkin edi. Bu guruhga kiruvchi ritsarlik romanlari ingliz tarixining german manbalari, xususan, Offa, Earl Goduin va Yovvoyi Edrik kabi ingliz qahramonlarini ulug'lovchi xalq og'zaki afsonalarining ma'lum bir qismlari bilan bog'liq.

Bu atama Bodel tizimiga kiritilmagan; uning kelib chiqishi sirli. O'n to'qqizinchi asrdan boshlab, olimlar ba'zi romanlarni "milliy", ya'ni import qilingan emas, balki mahalliy deb tan olishni boshladilar. Garchi ba'zi ilk tadqiqotchilar Jan Bodelning uchta "mavzusi"ga tez-tez murojaat qilishgan bo'lsa-da, "Angliya mavzusi" atamasi XIX asrda ham hali qo'llanilmagan edi.⁸

"Qirol Xorn" bu guruhga mansub eng qadimgi roman bo'lib, bu ritsarlik romani ingliz romannavislari tomonidan fransuz saroy elementlarini rad etgan holda bitilgan asarlarning yorqin namunasidir. "Qirol Xorn"da ishqiy elementlardan ko'ra sarguzashtlarga ko'proq urg'u berilgan. Asarda Sarasen butparastlarning bosqinchiligi tufayli o'z shohligidan voz kechib, mamlakatdan bosh olib ketishga majbur bo'lgan shahzodaning boshdan kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

⁸ Craik George L. History of English literature and of the English Language, vol. 1. New York: Scribner, Armstrong and co., 1877. pp. 227-8; Garnett Richard. English Literature: An Illustrated Record, 4 vols. New York: The Macmillan Company, 1903. vol.1, pp. 114-6; Ellis George. Specimens of Early English Metrical Romances, vol. 2. London: Longman, Hurst, Rees, Orme, and Brown, 1811. pp. 3-6 & 95-6.

Ushbu guruhga tegishli yana bir diqqatga sazovor roman bu “Daniyalik Xavelok” romani bo‘lib, bu asar ham jonli qahramonlar va qiziqarli sarguzashtlarga boy. Mazkur ritsarlik romanining birinchi qismida ota-onasidan ayrilgan yosh malika Goldboro taqdiri tasvirlanadi.

Yuqorida nomlari tilga olingan har ikki ritsarlik romanida ham bosh qahramon oddiy odamlar orasida oddiy turmush tarzini kechirib, oxir-oqibat o‘z maqsadiga erishgan shaxs sifatida tasvirlangan. Ushbu romanlar saroy hashamatini emas, balki ingliz o‘rta sinfining hayot tarzi va ruhini aks ettiradi.

“Angliya mavzusi”dagi ingliz romanlari orasida yana ikkita hikoya – “Uorviklik Yigit” hamda “Xemptonlik Bevis”lar ham juda mashhurdir. Birinchisi Uorvik grafining qizi Felisni hayratda qoldirishni maqsad qilgan Yigitning sarguzashtlari haqida bo‘lib, ular turmush qurishgach, kofirlarga qarshi buyuk maqsad yo‘lida kurashadilar. “Xemptonlik Bevis” romani esa Bevisning onasi qanday qilib erining qotilligini rejalashtirgani, qotilga turmushga chiqishi, Bevisning sotilishi va Sarasen qiroli Erminning xizmatiga olinishi haqida hikoya qiladi.

“Atelston” romani ham ma’lum ma’noda tarixni o‘zgartiradi va cherkov qo‘lida qirolning tahqirlangani sababli ruhoniyy yoki cherkov arboblari ta’sirida bo‘lganligi aks ettirilgan.

Ushbu to‘rt “mavzu”dan tashqari, boshqa mustaqil mavzularga oid turli xil romanlar mavjudki, ular haqida adabiyotshunoslar hali bir to‘xtamga kelishmagan. Chunki ular turli mavzularda bo‘lib, ularni ma’lum bir guruhlar ostida birlashtirish mohiyatan samarasizdir. Bunga asosiy sabab qilib, ularning kam sonli ekanini ko‘rsatish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Ingliz ritsarlik romanlarida Angliya va Britaniya mavzusi” deb nomlanib, uning 1-faslida ilk ingliz ritsarlik romanlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Ingliz ritsarlik romanlarining paydo bo‘lishining ilk bosqichlarida skandinavlarining ta’siri katta seziladi. Ilk ingliz ritsarlik romanlarida “haydaliq va qaytish” motivlari asosiy mavzu hisoblanadi. “Qirol Xorn”, “Daniyalik Xavelok”, “Bevislik Hampton” kabi romanlarda asosan mana shu motiv hukmronlik qiladi.

“Qirol Xorn” romanida dengiz sayohatlari, surgun va qaytish, qasos va nikoh kabi asosiy motivlar ritsarlik romanlari an’analariga tegishli. Ayrim tadqiqotchilar asarda xalq ertaklarida uchraydigan o‘zini tanitmay niqobda kelish va bashoratli tushlar kabi motivlarni ham qayd etadilar. Romandagi uzuk va baliq kabi ramzlar ham shular jumlasidandir.

Romanning asosiy mavzusi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashdan iborat. Asarda ijobiy va salbiy qahramonlar aniq farqli belgilar bilan tasvirlangan. Roman bosh qahramoni Xorning ma’naviy dunyosi ikkiga – sodiq do‘stlar va yovuz xoinlarga bo‘linadi. Bosh qahramon Xorning ishonchli va sodiq do‘sti Atulf makkor, sotqin Fikenxildga qarama-qarshi qo‘yilgan. O‘rta asrlardagi Angliyaning nasroniy dunyosi, shubhasiz, Viking bosqinchilari bo‘lgan Sarasenlarga qarshi qo‘yilgan. Xorning nasroniy olamiga sarasinlar daxl qiladilar. Diana Spiidning ta’kidlashicha, asarda keltirilgan sarasinlar aslida vikinglar bo‘lib, Xorn mamlakatining juda ham yovuz dushmanlari sifatida tasvirlanadi⁹.

⁹ Speed, Diane. "The Saracens of King Horn" // *Speculum* 65 (1990), pp. 564-95.

Adabiyotshunos olim U.R.J.Berronning ta'kidlashicha, Bevis, Uoriklik yigit, Xorn va Xavelok kabi ingliz ritsarlik romanlari qahramonlarining kurtuaz kodeksiga aloqasi yo'q, aksincha, ular yovuz dunyoning repressiv kuchlariga qarshi kurashadilar¹⁰. Haqiqatan ham, "Qirol Xorn"da Yevropa ritsarlik romanlariga xos saroy xushmuomalaligi yo'q: muallif malika Rimexildni shohsupaga qo'yib, uning fazilatlarini maqtash o'rniga, Xorn ortidan quvib, uni o'z muhabbati bilan yondirib, unga turmushga chiqishni iltimos qiladi.

Biroq, qirol Xorning sodda, oddiy xalqqa xos to'g'riligi bizni aldamasligi kerak. Asarda o'quvchi uchun tushunarsiz, beo'xshov syujet va epizodlar borki, bu kabi xolatlarni asar muallifining xalq ertak manbalariga to'liqsiz murojaat qilgani bilan izohlash mumkin. Barronning ta'kidlashicha, ana shunday beo'xshov epizodlardan biri shundaki, Xorn safardan qaytgach, o'zining haqiqiy shaxsini yashirish uchun hech qanday sabab keltirmaydi.¹¹ Jon Spiers ham Xorn timsolida mifologiya bilan noaniq bo'lsa-da ayrim aloqadorliklarni ko'radi.¹²

"Qirol Xorn", shuningdek, haqiqiy siyosiy ma'noda ham sodiqlik va xiyonat haqida saboq beradi. Li S. Remsining ta'kidlashicha, romanda tasvirlangan ichki kelishmovchiliklar davlat uchun eng yuqori xavf hisoblanadi.¹³ Biroq, "Qirol Xorn" "Daniyalik Havelok" romani kabi "shaxzodalar uchun oyna" emas, balki harbiy va ishqi sarguzashtlar va siyosiy manfaatlarga bag'ishlangan xronikadir.

Ko'pgina fransuz ritsarlik romanlaridan farqli o'laroq, "Qirol Xorn" aniq strukturaga ega. Muallif bosh qahramonning asta-sekin kamolotini, o'spirin yigitchaning ulg'ayib, haqiqiy erkak kishiga aylanishini ko'rsatadi: surgun qilingan yetim boladan u dushmanlaridan o'z qirolligini qaytarib oladigan va oxir-oqibat sevgilisining qo'lini so'rab, ko'ngliga yo'l topa olgan olijanob ritsarga aylanadi. Asar boshida bir oz qo'rqqoq bo'lsa-da, olijanob bola sifatida tasvirlangan Xorn obrazida sekin-asta dinamika kuzatila boshlaydi. U bir nechta harbiy g'alabalarni qo'lga kiritadi, murakkab strategga aylanadi va oxir-oqibat undan nohaq tortib olingan muhabbatini va qirolligini qaytarib oladi. Jorjianna Zigler asar davomida tasvirlangan bosh qahramon xarakteridagi ushbu rivojlanishning to'rtta alohida bosqichini ko'rsatib o'tadi: buzilish, o'rganish, boshlash va qayta tiklash.¹⁴ Romanda tasvirlangan uchta jang Xorning mahorati va o'ziga ishonchi ortib borganini ko'rsatadi. "Yosh o'spirindan haqiqiy erkakka, o'ljadan ovchiga o'tish..."¹⁵ni ifodalovchi ov va muhabbat motivlarining takrorlanishi, shuningdek, tushlar ramziyligi ham bosh qahramon harakteri dinamikasini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Keyingi asar – "Daniyalik Xavelok" XIII asr oxirlariga mansub bo'lib, asosiy mavzu bu romanda ham haydaliq va qaytish motivi bilan bog'liq.

"Daniyalik Xavelok"da, "Qirol Xorn"dagi kabi, bosh qahramon obrazi butun asar davomida markaziy rol o'ynaydigan yana bir romantik qahramon haqida hikoya qilinadi. Romanda yaqqol takrorlanuvchi qurilmalar — uhlab yotgan

¹⁰ Barron, W. R. J. *English Medieval Romance*. London: Longman, 1987. – P. 54.

¹¹ Barron W. R. J., *English Medieval Romance* (London: Longman, 1987), p. 54.

¹² John, Speirs. *Medieval English Poetry: The Non-Chaucerian Tradition* (London: Faber and Faber, 1971), p. 187.

¹³ Lee C. Ramsey. *Chivalric Romance: Popular Literature in Medieval England* (Bloomington: Indiana University Press, 1983), p. 32

¹⁴ Georgianna Ziegler, "Structural Repetition in King Horn," *Neuphilologische Mitteilungen* 81 (1980), 403.

¹⁵ Georgianna Ziegler, "Structural Repetition in King Horn," *Neuphilologische Mitteilungen* 81 (1980), 406.

qahramonning og‘zidan porlayotgan g‘ayritabiiy yorug‘lik va uning yelkasidagi xoch shaklidagi tug‘ilish belgisi hikoyaning hal qiluvchi lahzalarida uch marta takror namoyon bo‘ladi: Grim hali bolaligida uni o‘ldirmoqchi bo‘lganlarida; u Goldeboraga majburan uylanganida; va u Daniyada graf Ubbening uyida tunaganida. Xavelokning jismu jasadi nafaqat yuqorida aytib o‘tilgan ilohiy xislatlar bilan ajralib turadi, balki uning bo‘yi atrofidagi boshqa erkaklarga qaraganda sezilarli darajada balandroqdir ham. Injilda tasvirlangan Shoh Saul singari, u olomondan gavdasining ulkanligi bilan ajralib turadi, uning shohona odatlari ham uni oddiy odamlardan ajratib turadi. Xavelok oddiy odamlarga qaraganda ko‘proq ovqat yeydi, bu esa qahramonni ko‘proq ishlashga va o‘zini asrab olgan oilasini boqishga hissa qo‘shishga undaydi. Ammo o‘ziga e‘tibor qaratmaslik uchun oddiy odamlar orasida ishlab, tanasini niqob ostida yashiradi. Uning niqob ostida asliyatini yashirishi Tomas Malorning “Arturning o‘limi” (Le Morte d’Artur) asaridagi ser Garet obrazini eslatadi.¹⁶ Uning jismoniy kuchi butun hikoya davomida qayta-qayta eslatib turiladi. U mashhur kurash va tosh otish musobaqalarida g‘alaba qozonib, Linkoln aholisining hurmatini qozonadi. U jangda, hattoki an’anaviy qurollangan raqiblarga qarshi noan’anaviy qurollardan - boltadan tortib to to‘qmoqqacha - eshik ramkasigacha foydalanganda ham kuchli. “Qirol Xorn” asarida bosh qahramon Xorning go‘zalligi doimo qayd etilgani va maqtovgaga sazovor bo‘lganidek, Xavelokning ham g‘ayrioddiy jismoniy kuchi va mahorati asar davomida tasvirlab boriladi.¹⁷

Romandagi muhabbat chizig‘i boshqa ritsarlik romanlaridagi kabi emas. Zero Xavelok va Goldeboraga o‘rtasidagi muhabbat rishtalari ular turmush qurganlaridan keyin paydo bo‘ladi. “Qirol Xorn” va “Ser Izumbras”da bosh qahramon o‘z qirolligi, mol-mulki bilan birgalikda sevgan ayoli uchun ham kurash olib boradi. Xavelok va Goldeboraga munosabatlari kitobxon tomonidan kutilgan ishqiy sarguzashtni namoyon qilsa-da, ularning nikohi romantik sevgidan emas, balki zaruratdan tug‘iladi; bu ularning qonuniy merosni qaytarib olishga intilishlariga qonuniylik beruvchi ijtimoiy va siyosiy ittifoqni yaratadi.

“Ser Izumbras” asari o‘rta asrlar Britaniyasidagi eng qisqa va shu bilan birga eng mashhur ritsarlik romani hisoblanadi. S. Pauell “Ser Izumbras”ning o‘rta asrlar tomoshabinlari orasida erishgan muvaffaqiyatining sababini uning “o‘rta asrlar standartlari bo‘yicha ham ritsarlik dramasini, ham chinakam tavbaning taqvodor tasvirini taklif etgan ajoyib roman bo‘lgani”, “xristian ta’limoti bilan ham, roman janrining umumqoidalari bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lgan poema” ekanligi bilan izohlaydi.¹⁸ Bu asarning buyukligini uning bir necha jihatlari orqali ko‘rish mumkin. Avvalo, roman zamon ruhiga juda hamohang yaratilgan va shuning uchun keng kitobxonlar ommasini tomonidan juda iliq qarshi olingan. Zero, asar tahminan 1330-yillarda – 1309 va 1320 yillarda ingliz jamiyatini junbushga keltirgan voqealardan so‘ng yaratilgan bo‘lib, o‘rta va quyi tabaqa vakillari ulkan

¹⁶ Hoffman Donald G., "Malory's Cinderella Knights and the Notion of Adventure," *Philological Quarterly* 67 (Spring 1988), 145-56.

¹⁷ Ramsey Lee C. *Chivalric Romances: Popular Literature in Medieval England* (Bloomington: Indiana University Press, 1983), p. 36.

¹⁸ Powell S. D. Models of religious peace in the Middle English romance «Sir Isumbras» // *Neophilologus*. 2001. Vol. 85. - P. 121-122.

ommasining salib yurishida ishtirok etish uchun harakatga tushib qolgani bilan bog'liq. Tarixchilar ham 1309 va 1320 yillardagi salib yurishlarini norasmiy mavqei va g'ayrioddiy tarkibini ko'rsatish uchun "dehqonlarning salib yurishlari", "kambag'allarning salib yurishlari" va "cho'ponlarning salib yurishlari" deb turli nomlar berganligi tarixdan ma'lum. L. Menion ana shunday tarixiy voqealar fonida roman mazmunini quyidagicha ta'riflagan: "Ser Izumbras" o'sha davrda salib yurishining yangi shakllarda paydo bo'lganiga misol bo'la oladi. Asar qo'shinsiz salib yurishini tasvirlagan salib yurishi haqidagi umuman o'zgacha turdagi roman sifatida yuzaga keldi".¹⁹

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan "Ser Izumbras" diniy mavzudagi asarlar qatoriga kiritilgan bo'lsa-da, bu roman mavzusini faqat diniy motivlar, xususan, e'tiqod motivi bilan cheklash noto'g'ri bo'lardi. Unda roman janrining boshqa shakllari bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p turli xil motivlar mavjud. Xususan, mazkur romanda sinov motivi alohida e'tiborga molik. Zero, romanning boshidan to deyarli oxirigacha bosh qahramonning sinalishi masalasi markaziy o'rinda turadi.

Romandagi voqea-hodisalar simmetrik tarzda rivojlanadi. Avvaliga hamma narsasidan judo bo'lgan bosh qahramon keyinchalik yana ularga erishadi. Xususan, qahramon xotini va uch farzandi bilan badavlat yashaydi – mag'rurligi va kibri uchun Xudodan jazo xabarini oladi – birin-ketin mulkini, bolalari va xotinini yo'qotadi – butparast sulton tomonidan xo'rlanadi – temirchiga yordamchi ishchi sifatida yollanadi. Bu voqealar rivojida asli mulkdor bo'lgan bosh qahramon ijtimoiy tabaqaning eng pastki qismiga tushib qoladi. bundan keyingi voqealar esa qahramon statusining ortga qaytishiga ishora qiladi. Xususan, u butparastlardan o'ch oladi va ularni Sultonini o'ldiradi – Quddusga yetib boradi va Xudodan mag'firat xabarini oladi – butparast mamlakat malikasi maqomida xotinini topadi – uch o'g'li bilan butparastlar bilan katta jang uchun birlashadi – er va ota sifatidagi oilaviy statusini qaytarib oladi – ijtimoiy mavqeini qayta tiklaydi.

Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, bosh qahramon o'z rafiqasini ko'rganida ham undan ismini va o'zining kimligini yashiradi. Bu kabi syujet va motivlar aksariyat xalq eposlarida uchraydi. Masalan, xuddi shunday qaytish motivi "Alpomish"da Hakimbekning o'z diyoriga qaytganida o'zining kimligini yashirishi, yoki Homerning "Odisseya"sida Odisseyning Itakaga qaytganida o'zining kimligini yashirishi motivi "Ser Izumbras"da ham takrorlanadi.

XIV asrga tegishli bo'lgan "Atelston" romani, garchi 812 satrdan iborat nisbatan qisqa roman bo'lsada, zamonaviy muharrir uchun unchalik muammo tug'dirmaydigandek tuyuladi, chunki u faqat bitta qo'lyozmadagina saqlanib qolgan, ya'ni turli savollar keltirib chiqaruvchi boshqa manbalari yo'q, biroq aslida bunday emas. Olimlar, masalan, asarda X asrdan XIV asr oxirigacha bo'lgan voqealarga, jumladan, Genrix II va Tomas Beket o'rtasidagi kurashga va baronlarning Richard II ga qarshi kurashiga ishoralar borligini aytishadi. Yana boshqalar 1102 yilda simoniyada aybdor deb topilgan tarixiy Vaymundga yoki qirol Ioan hukmronligi davrida sodir bo'lgan voqealarga ishora qiladilar.

¹⁹ Manion L. The Loss of the Holy Land and «Sir Isumbras»: Literary Contributions to Fourteenth-Century Crusade Discourse // *Speculum*. 2010. Vol. 85. No. 1. - P. 73-74.

Romanning manbasi ham bahstlab va munozarali. A.M.Trauns mahalliy rang-barangligi, joy nomlari va ingliz urf-odatlarini va qonunlari tafsilotlariga qaramay, arxiv soyasida fransuzcha asl nusxa yashiringanligini bir necha bor ta'kidlagan. Laura Xibbard Lumisning ta'kidlashicha, romanning kelib chiqishi qirolicha Emma afsonasi, Eduard Konfessorning onasi hikoyasiga borib taqaladi.²⁰ Ushbu masalalar bo'yicha ilmiy nuqtai nazarlarning xilma-xilligi bu oddiy ko'rinadigan romanning hayratlanarli darajada murakkab intertekstualligi va talqin qilish imkoniyatlaridan dalolat beradi.

Donald Sands o'z nashrining kirish qismida Atelstonning obro'si juda yuqori ekanligini nazarda tutadi. Uning ta'kidlashicha, bir qarashda asar haqiqatan ham juda ta'sirli ko'rinadi, biroq chuqurroq kirib borganing sari buning aksiga guvoh bo'lasiz. Sands asarda qahramonlarning juda nozik portretlari yo'qligini ta'kidlaganida, shubhasiz, haqdir. Qirolning ishonuvchanligi, arxiyepiskopning qat'iyatliligi va xoinning shafqatsizligi - bularning barchasi yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ertaklarda uchraydigan oddiy qarama-qarshilikka o'xshaydi. Dieter Meyl ham roman qahramonlar ham esda qolarli, ham individualdir, deganida yanglishmagandi.²¹

Bobning 2-faslida Britaniya mavzusidagi ritsarlik romanlarida qirol Artur mifologemasi tadqiq etilgan.

Qirol Artur haqidagi afsonalar turkumi dunyoning ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlari madaniyatining muhim hamda ajralmas qismi hisoblanadi va shuning uchun doimiy qiziqish markazida turadi.

Qirol Artur kelt folklor an'analari qahramoni bo'lib, u haqidagi afsonalar Britaniya orollari xalqlari madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur afsona ko'p asrlar davomida nafaqat keltlarning, balki anglosakslar avlodlarining shuurida ham mustahkam o'rin egallagan arxetipga aylangan.

Yevropa madaniyati tarixida qirol Artur obrazi tahminan o'n besh asrlardan beri mavjud. Uning prototipi V-VI asrlarda anglosakslarga qarshi kurashda shuhrat qozongan sarkarda bo'lib, ayrim manbalarda unga hatto tarixiy shaxs sifatida qaraladi. Artur haqidagi ilk manbalardan to hozirga qadar yaratilgan ilmiy va adabiy manbalarda uning obrazi turfa xil o'zgarishlarga yuz tutgan. Oddiy qabila boshlig'idan buyuk sarkardaga aylangan bu afsonaviy obraz haqida ilk marta Llifr Aneyrin qalamiga mansub tahminan VI asrda yaratilgan she'riy asarda kuylanadi. O'sha davrlarga oid yana bir nechta manbalarda ham Artur haqida u yoki bu darajadagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Keyinchalik Arturni Nenniy Bankorensisning tahminan 829-830 yillarda yozilgan "Britaniya tarixi" kitobida 12 ta jangda g'alaba qozongan qahramon sifatida ta'riflanadi.

Arturning shavkatli g'alabalari afsonaviy Geraklga tenglashtiriladi, zero Geraklning mashhur bo'lishida ham uning 12 qahramonligi asosiy rol o'ynagandi.

Shuningdek, Artur obrazi o'zida kelt mifologiyasi qahramonlari hisoblangan Konxobar va Bran kabi personajlarning ko'plab xususiyatlarini mujassam etgan.

²⁰ Laura Hibbard Loomis, *Mediæval Romance in England: A Study of the Sources and Analogues of the Non-Cycle Metrical Romances* (New York: Burt Franklin, 1960), pp. 143-46.

²¹ Mehl Dieter. *The Middle English Romances of the Thirteenth and Fourteenth Centuries* (London: Routledge and Kegan Paul, 1968), p. 148.

VI-XII asrlarda yaratilgan qirol Artur va Aylana Stol risarlari haqidagi afsonalar keyinchalik – XII-XV asrlarda Fransiya, Angliya va Germaniyada o‘rta asr ritsarlik romanlari janrining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Qirol Artur haqidagi ritsarlik romanlarining tom ma‘nodagi otasi fransuz shoiri Kreten de Trua (tahminan 1135 - 1180-1190 yillar oralig‘i) hisoblanadi. Uning qalamiga mansub to‘rtta asar mavjud bo‘lib, ularda Artur obrazi ishtirok etadi. Xususan, “Erek va Enida”, “Lanselot”, “Iveyn” va “Perseval yoki Graal haqida hikoya” asarlarida u Artur obrazining yangi tamoyillarini yaratdi. Kreten de Trua Artur haqidagi va unga bog‘liq bo‘lgan turli afsonalardan yorqin epizod va personajlarni o‘zlashtirib, yaxlitlaydi. Biroq, shunisi e‘tiborliki, hech bir asarida Artur haqidagi hikoyani boshidan ohirigacha mukammal bayon qilmaydi. Uning romanlarida Artur obrazi statik, o‘zgarmas figura sifatida shakllantirilgan bo‘lib, bu obrazga ideallik ramzi sifatida qaraladi, zero uning fonida yangi dinamik qahramonlar – yosh va shijoatli ritsarlar rivojlanadi.

Mazkur ritsarlik romanlarida bosh qahramonlar hayoti bevosita Artur personaji bilan bog‘liq tarzda rivojlanadi. Garchi bosh qahramon sifatida qaralmasa-da, asarlarning syujet tizimida Artur obrazi alohida o‘rin egallaydi.

Kretyen de Trua qahramonlari bilan bog‘liq voqealar anchayin yiroq, XII asr voqeligi bilan o‘ta murakkab, shartli bog‘langan Arturning utopik qirolligida sodir bo‘ladi. Bu chinakam ritsarlik va yuksak axloqiy ideallar dunyosi, ushbu olam ancha zamonlar oldin yaralgan, biroq u hamisha navqiron, na boshi va na oxiri mavjud bo‘lgan poetik va axloqiy utopiya hisoblanadi. Bu olamda xristian etikasi keltlar folklorining sehri va hayoliy mavjudotlari bilan tinch-totuvlikda hayot kechiradi. Kretyen de Trua romanlarining markazida turli mo‘jizalar sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan, qahramonlarining his-tuyg‘ulari yuksak va olijanob bo‘lgan, xarakterlari to‘laqonli va teran aks ettirilgan, g‘ayritabiiy, chinakam ritsarlik olamidagi alohida qahramonlarning jasoratlari turadi.

Kretyen de Trua romanlarida u yoki bu axloqiy dilemmani hal qiluvchi bitta qahramon mavjud. Aksariyat hollarda u axloqiy uyg‘unlikni izlash bilan band bo‘lib, suyukli ayoliga bo‘lgan muhabbat va ritsarlik sha‘ni o‘rtasida sarson bo‘ladi. U yosh, jasoratli, qalbi esa ezgu fikrlarga to‘la. Muallif o‘z qahramonini hayotining burilish davrida, ritsar sifatida shakllangan davrida tasvirlaydi. Muhabbat va burch o‘rtasidagi ziddiyat de Trua romanlarining asosiy mavzusidir: Lanselot Gvinevruga bo‘lgan muhabbati bilan bog‘liq chuqur axloqiy kelishmovchilikni yengishga intiladi. Erek o‘z rafiqasiga bo‘lgan muhabbati va haqiqiy ritsarlik burchlari o‘rtasida muvozanat topishga harakat qiladi va hokazo. Ritsar yonida hamisha uning suyukli ayoli turadi. Biroq, trubadurlarning poetik ijodidan farqli o‘laroq, ritsarlik romanlarida ayollar asosiy rol o‘ynamaydilar. Qahramonning munosib do‘sti bo‘lishga imkon beruvchi jasorati, sadoqat va muhabbatiga qaramay, de Trua va uning izdoshlari asarlarida ayol faqat ikkinchi darajali rol o‘ynaydi. Ritsar va uning sarguzashtlari birinchi o‘rinda turadi.

Keltlar qirol Artur afsonalaridagi eng qadimgi va eng muhim element hisoblanadi. Eramiz boshlariga kelib, Keltlar sivilizasiyasi bir nechta avtonom tarmoqlarga bo‘linib ketgan bo‘lishiga qaramasdan, ular o‘rtasida doimiy almashinuv mavjud edi, ammo, qirol Artur afsonalari shakllanishiga qo‘shgan

hissalari kabi ularning yo'llari va taqdirleri turlicha bo'lgan. Ko'plab Kelt qabilalarida muqaddas va adabiy matnlarni yozish taqiqlangan edi. Ushbu taqiq bekor qilinganda, to'g'rirog'i unutilgandan keyin faqat Keltlar afsonalari va an'analarining so'nggi versiyalarigina qayd etilgan.

Artur afsonalarida mif va afsonalarning Irland va Uels variantlari izlari Keltlar elementiga qaraganda ancha aniqroq ko'rinadi. Biroq, masalan, Keltlarning ko'llar va buloqlarga sig'inishi Artur an'analarigacha yetib kelgan, unda suv haqida ko'p aytilgan: qahramonlar butun umrlarini ko'llar tubida o'tkazadilar (Lanselot suv osti qal'asi xonimi tomonidan tarbiyalangan), qirol Arturning qilichi - Ekskaliburning ko'ldan paydo bo'lishi va ko'lga qaytishi. Qahramonlar o'rtasidagi hal qiluvchi janglar bo'lib o'tadigan va hamma ham topa olmaydigan lordlar mavzusi ham Artur afsonalariga xosdir. Keltlar orasida ko'pincha g'ayritabiiy kuchlarga ega bo'lgan va odamlar bilan adovat yoki do'stlik bilan murakkab munosabatlarda bo'lgan keng tarqalgan hayvonlarga sig'inish odatini ta'kidlamaslik mumkin emas. Artur afsonalarida otlar, qirg'iyalar va itlar deyarli har doim o'z o'rinlariga ega bo'lib, odamlar bilan faol muloqotga kirishadilar, shu bilan birga ulardan o'z mustaqilliklarini saqlaydilar. Shu o'rinda qarg'aning Artur afsonalaridagi rolini eslatib o'tish joiz: afsonaga ko'ra, Artur o'lmagan, balki qarg'aga aylangan va Britaniya o'lim xavfi ostida qolganda, u qaytib kelib mamlakatni qutqaradi. Keltlar orasida qarg'a afsonaviy xarakter kasb etadi. "bu qush avval... quyoshga sig'inish bilan bog'liq edi, keyingi davrda esa ... jangchi xudolar bilan bog'lanb istifoda etildi ..."22.

Kelt afsonalari qirol Arturning dumaloq stol haqidagi afsonalarning to'g'ridan-to'g'ri manbai, deb aytish noto'g'ri bo'lar edi, lekin ular bu afsonalar asosida yotadi. Ehtimol, A.D.Mixaylov ta'kidlaganidek, "... irland dostonlari ... qirol Artur afsonalarining parallel, hatto ma'lum darajada namunasidir. Bu yerda chiziqli genetik qatorlarni yaratmaslik kerak23. Qirol Ulad Konxobarni qirol Arturning prototipi sifatida ko'rish aqlsizlikdir, lekin uning donoligi va adolati Armorika qirolining fazilatlariga o'xshaydi va uning Emayn-maxedagi saroyi Arturning Kamelotini eslatadi.

Biroq, dumaloq stol va boshqa barcha o'xshashliklarga qaramay, Konxobar saroyi Artur saroyidan ko'ra ibtidoiy va soddaroq ekanligini va Konxobarning o'zida esa feodal qirol emas, balki ideal qabila boshlig'i sifati mavjud ekanini hisobga olmaslik mumkin emas. Buning ajablanarli joyi yo'q. Axir, qirol Ulad haqidagi afsonalar ancha qadimgi davrlarda, ibtidoiy qabila muhitida shakllangan, bu yerda urug'lar tizimining parchalanishi endigina boshlangan va ijtimoiy tuzilma o'sha paytdagiga qaraganda ancha ibtidoiy bo'lgan.

Shunga qaramay, qirol Arturning afsonalarida biz Kelt afsonalarining aksadolarini topamiz. A.D.Mixaylov ta'kidlaganidek: "shu bilan birga, miflarning ko'p qatlamliligini yetarli darajada aniqlik bilan hisobga olinmagan. Uels matnlarida yozilgan Artur haqidagi ertaklar ikkinchi darajali, ularda ko'plab irlandcha elementlar ko'zga tashlanadi. Keltlar mifologik tizimida bir nechta qatlam mavjud. Ushbu tizim piktlar mifologiyasi asoslari (dunyo madaniyatiga

²² В мире мифов и легенд. – Санкт-Петербург. СПб,ТОО, «Диамант», 1995. - С. 272.

²³ Михайлов А.Д. Артуровские легенды и их эволюция // Мэлори Т. Смерть Артура. - М., 1974. - С. 799.

Tristan prototipini bergan) va qo'shni xalqlarning ertaklari (xususan, uzoq vaqtdan beri Britaniya orollariga bostirib kirgan skandinaviyaliklar) bilan doimiy o'zaro ta'sir va to'qnashuvda rivojlangan."²⁴ Qirol Arturning dumaloq stoli haqidagi afsonalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ko'p qatlamli madaniy an'analardan tashqari, nasroniylik ularning rivojlanishida juda samarali omil bo'ldi. Britaniya orollari, ayniqsa Irlandiya, juda erta va juda tinch tarzda xristianlashtirilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Kelt butparast madaniyati yo'q qilinmadi, balki nasroniylikni boyitdi, bu esa o'z navbatida yunon va rim adabiyoti an'alarini olib keldi va ular bu yerda mustahkam zamin topdilar. Xristianlik tomonidan siqib chiqarilmagan, balki unga moslashgan xalq e'tiqodlari tufayli Artur afsonalari g'ayritabiiy, mo'jizaviy va hayoliy motivlar bilan to'yingan. Keltlar dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari xristianlik tufayli yuzaga kelgan o'zgarishlar tufayli ma'lum ma'noda mustahkamlandi.

Dissertatsiyaning 3-bobida O'rta asrlar ingliz ritsarlik romanlarining lingvopoetik tahlili amalga oshirilgan. Dunyo adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy asarlarning strukturaviy va poetik xususiyatlarini tahlil etish, ularning tematikasi, g'oyaviyligi, ulardagi badiiy va stilistik vositalarni tadqiq etish orqali ularning tizimli va kompleks tahlilini kitobxonlar ommasiga taqdim etish hozirgi davr kun tartibidagi masalalardan biridir.

Qahramonning ichki kechinmalari, portreti va psixologik xolatini tasvirlab beruvchi lingvistik vositalarni o'rganish orqali ham badiiy asarni teranroq o'rganish va xis qilish mumkin.

Qahramon ichki nutqi ritsarlik romanlarida keng ishlatiladigan stilistik uslubdir. Yuqorida qayd etilgan ritsarlik romanlarining deyarli barchasida u yoki bu darajada ushbu uslubiy vosita namunalari mavjud. Ularda ichki nutq ichki monologlar yoki qisqa mulohazalar shaklida taqdim etiladi, ularni ifodalash uchun asosan to'g'ridan-to'g'ri nutq bilan sintaktik modellar qo'llaniladi. Ritsarlik romanlaridagi ichki monologlar qahramonning harakatlarini rag'batlantirish vazifasini bajarib, ular go'yo u yoki bu harakatning zarurligini isbotlaydi. Asar qahramonlarning harakatlari ham olijanob, ham nomaqbul bo'lishi mumkinligi sababli, ichki monologlar ham ijobiy qahramonlarga, ham salbiy qahramonlarga tegishli bo'ladi.

Ritsarlik romanlaridagi qahramonlarning ichki monologlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu monologlardagi murojaatlar har xil turdagi adresatlarga qaratilgan bo'ladi. Ular orasida eng ko'p uchraydigani bu Xudo va Bibi Maryamga murojaat qilishdir. Shunisi qiziqki, bunday fideistik bayonotlar faqat ijobiy qahramonlar – "halol-pok va vijdonli masihiylar"ning tilidan bayon etiladi va ularning ibodatlari, albatta, Qodir Tangri tomonidan qabul qilinadi.

Xudoga murojaat qilishdan tashqari, turli xil xayoliy suhbatdoshlarga murojaatlar ham ritsarlik romanlari uchun xos bo'lib, ular orasida kema ("Qirol Xorn"), dengiz ("Emare") kabi aniq obyektlar ham, o'lim ("Floriz va Blanche fleur") yoki sevgi ("Ser Orfeo") kabi mavhum tushunchalar ham mavjud. Bundan tashqari, tirik yoki allaqachon olamdan o'tgan va lekin voqealar rivojida ishtirok etmayotgan hayoliy suhbatdoshga ham murojaatlar mavjud.

²⁴ Михайлов А.Д. Артуровские легенды и их эволюция // Мэлори Т. Смерть Артура. – М., 1974. – С. 796.

Badiiy asarda qahramon obrazini yaratishning lingvistik vositalariga metafora, metonimiya, kinoya, taqqoslash va boshqalar kiradi. Badiiy asarning real hayotdan farqi shundaki, undagi qahramonlar, ularning xarakteri va o'ylari, hayotiy voqealari haqidagi ma'lumotlar muallif tomonidan o'ylab topilibgina qolmay, balki ular shunday saralanib, tartibga solingan, ular muallif niyatini amalga oshirishga, ya'ni badiiy obraz yaratishga xizmat qiladi. Agar haqiqiy hayotda biron bir hodisa aniq quyoshli kunda sodir bo'lsa, bu tasodifiy masala. Agar badiiy asarda xuddi shu narsa tasvirlangan bo'lsa, bu muallifning tanlovidir²⁵.

Har qanday adabiy asar o'z muallifining g'oyalari, hayotiy tajribasi va voqealarga munosabatini aks ettiradi, his-tuyg'ularni yetkazishga qodir bo'lgan timsollarga aylanadi va bu timsollar ma'lum bir tartib va maromda joylashadi; Ritm so'zda ifodalangan ba'zi g'oyalar va his-tuyg'ularga alohida ahamiyat beradi, shuningdek, biz o'qigan narsalar vaqt ichida o'z hayotini yashayotgani va badiiy vaqtning muhim tarkibiy qismi ekanligi haqidagi illyuziyani yaratadi.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, metafora va epitet va metonimiya muallifga o'zi mo'ljallagan badiiy obrazni yaratishga, uni jonlantirishga yordam beradi.

Amerikalik adib Jeyms N. Frey shunday yozadi: "Qahramonlar butun asarni bunyod etadigan materialdir. Shunday ekan, qiziqarli kitob yozish uchun o'quvchi ongida uzoq vaqt yashaydigan jonli obrazlarni yaratish kerak".²⁶ Shuni ta'kidlash kerakki, asar qahramoni haqiqiy odamdan farq qiladi. Badiiy asarlarda qahramonlar har doim bir oz bo'rttirib, haqiqiy hayotdagidan ko'ra rang-barangroq tasvirlanadi.

Har qanday san'at asaridagi badiiy obrazning asosiy predmeti bosh qahramon obrazi bo'lib, unga muallif turli xil stilistik uslublardan foydalangan holda tashqi ko'rinish va xarakterning ma'lum xususiyatlarini beradi. Ushbu uslublar o'quvchilarga adabiy asar olamiga kirib borishga yordam beradi, muallifning bosh qahramonni ichki holati, his-tuyg'ulari, kayfiyati va harakatlariga oid maqsadini tushunishga yordam beradi. Markaziy qahramonlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lgan o'quvchi butun asar tushunchasiga chuqurroq kirib bora oladi.

Badiiy asar qahramoni hamma tomonlama haqiqiy odamdan ustundir. Masalan, asar qahramoni murakkab, o'zgaruvchan, ba'zan sirli bo'lishi mumkin, lekin u o'quvchiga doim tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchi qahramon obrazini uning harakatlarini o'rgangandan so'ng, uning boshqa personajlar bilan yoki o'zi bilan munosabatlarini tahlil qilgandan so'ng o'z ongida shakllantiradi. Qolaversa, qahramonning xarakteri va qiyofasi tashqi xususiyatlar orqali va uning yaqinlari muhiti, unga tegishli narsalar orqali ochiladi. Qahramonning fikr va harakatlariga alohida e'tibor beriladi.

"Badiiy obraz har doim ham shaxsning umumlashtirilgan, tiplashtirilgan tasviri bo'lavermaydi. Badiiy asarda konkret shaxs va hodisalarni tasvirlash orqali butun bir davrning umumlashtirilgan obrazi, jamiyat yoki tabiat obrazi yaratilishi mumkin".²⁷

²⁵ Розенталь, Д. Э. Словарь-справочник лингвистических терминов / Д.Э Розенталь, М.А. Теленкова. – М., 2001. – 624 с.

²⁶ Фрэй Джеймс. Как написать гениальный роман. – Москва: Издательство Амфора, 2005 г. – с.46.

²⁷ Власова Е.С. Значение языковой природы художественного образа в литературе. – М.: Молодой учёный, 2011. – с.84.

Asar qahramonlari obrazlarini yaratish juda qiyin. Qahramonning tashqi ko‘rinishini tasvirlashning o‘zi yetarli emas, siz o‘quvchiga qahramonning ichki dunyosini ko‘rishga va tushunishga yordam beradigan usullarni tanlashingiz kerak. Asar qahramonlarining portretini yaratish muallifning asosiy vazifalaridan biridir. Portret qahramonning tashqi ko‘rinishining tasviridir. Muallif personaj portretini yaratish orqali uni asar qahramonining xarakteri va shaxsiy fazilatlari bilan uyg‘unlashtiradi. Stilistik uslublar xarakterning tashqi qiyofasini yaratishning muhim usuli hisoblanadi. Asar qahramonlarining tashqi ko‘rinishini tasvirlash uchun mualliflar ko‘pincha bir qator stilistik vositalardan foydalanadilar. Ayniqsa, metafora, qiyoslash, epitet, metonimiya kabi stilistik vosiyalardan obraz tasvirini yaratish uchun unumli foydalaniladi.

Adabiy qahramon obrazini yaratish jarayoni har doim adabiy ijoddagi eng qiyin jarayonlardan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Qahramon portreti obraz yaratishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, yozuvchiga ko‘pincha qiyinchiliklar tug‘diradi. Badiiy portret - bu aniq talqinga ega bo‘lmagan juda murakkab hodisa. Binobarin, adabiy personajlar portretini yanada aniqroq yaratishda foydalaniladigan stilistik vositalar va ekspressiv vositalar tizimini o‘rganish tadqiqotchi va tilshunos olimlarning asosiy vazifalaridan biridir.

Ingliz ritsarlik romanlari matnida eng ko‘p uchraydigan vosita epitetlardir. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki ritsarlik romanlari qahramonlari qaysidir ma‘noda ajoyibdir va aynan epitetlar bu “ajoyiblikni” to‘liq ochib bera oladi. Masalan:

And because I shall die of the birth of thee, I charge thee, gentlewoman, that thou pray my lord, King Meliodas, that when he is christened let call him Tristram, that is as much to say as a sorrowful birth.

“Qayg‘uli tug‘ilish” epiteti kelajakda risar Tristram tug‘ilganda onasini o‘ldirganini doimo eslashini anglatadi. Ammo, onasi Elizabet unga ism qo‘yganidek, uning taqdiriga jasur jangchi bo‘lish bitilgandi, chunki u tug‘ilishi bilanoq birinchi qotillikni sodir etgan.

Obraz tasvirini yaratish muhimligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda metafora bo‘lib, u badiiy tasvirni yaratishning asosiy usullaridan biridir.

“Arturning o‘limi” romanida metaforadan qayta-qayta foydalaniladi va ko‘p hollarda u ma‘lum bir qahramonni o‘rab turgan obyektlarning individualligini bildiradi va shu bilan qahramonning o‘ziga xosligini ta‘kidlaydi:

But she had taken such cold for the default of help that deep draughts of death took her, that needs she must die and depart out of this world.

Muallif bu syujet orqali Tristramning onasi o‘limidan oldin qanday azob-uqubatlarni boshdan kechirganini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan va buni metafora orqali ifodalagan. Tristram onasini qanchalik sevsa, uyi va Izolda uchun shunchalik jasorat bilan kurashardi.

Quyidagi misol esa qirol Arturning buyukligini ko‘rsatadi:

Ye know well that Sir Arthur hath the flower of chivalry of the world with him, as it is proved by the great battle he did with the eleven kings...

Zero “ritsarlik gulchambari” dunyodagi eng yaxshi ritsarlarga ishora qiladi va ularning barchasi Arturga xizmat qiladi, bu Artur nafaqat buyuk shoh, balki eng yaxshi risarlardan biri ekanligini anglatadi.

Quyidagi misolda metafora orqali Merlin obrazini ifodalanadi:

Beware, said the other knight, of Merlin, for he knoweth all things by the devil's craft.

Ushbu metafora boshqa qahramonlarning Merlinga bo'lgan munosabatini ochib beradi, u har doim to'g'ri maslahat beradi, ko'plab savollarga javoblarni biladi va har doim har qanday vaziyatdan chiqish yo'lini topadi va shu sababli uni deyarli shayton deb hisoblashadi.

Yuqorida qayd etilgan lingvistik vositalardan tashqari, u yoki bu darajada qahramonlar obrazini yaratishga yordam beradigan boshqa vositalarni ham uchratish mumkin. Masalan, "Arturning o'limi" romanidagi ma'lum bir ma'noni anglatuvchi ismlarni olaylik: Sir Gilbert the Bastard (nikohsiz tug'ilgan), King Anguish of Scotland (bu ism qirolning fojiali taqdirini bildiradi)

Barcha lingvistik vositalarni o'rganib chiqib, ularni tahlil qilib, quyidagicha xulosalarga kelish mumkin: ritsarlik romanining har bir muallifi o'ziga xos ritsarlik g'oyasiga va risarlar obrazlarini yaratishning o'ziga xos usullariga ega, chunki turli romanlarda turlicha vositalardan foydalanilgan – "Artrning o'limi" romanida bu mubolag'a va epitet bo'lsa, "Qirol Xorn" romanida esa metafora va taqqoslashdan iboratdir.

XULOSA

Inglizlar zaminida O'rta asrlarda yaratilgan ritsarlik romanlarini davr jihatdan 4 ta guruhga bo'lish mumkin:

1) 1100-1250 yillarda yaratilgan ritsarlik romanlari, ya'ni o'tish davri romanlari; 2) 1250-1350 yillarda yaratilgan ritsarlik romanlari, ya'ni ilk ritsarlik romanlari; 3) 1350-1400 yillarda yaratilgan ritsarlik romanlari, ya'ni Uyg'onish davri oldi vaqti romanlari; 4) XV asrda yaratilgan ritsarlik romanlari, ya'ni Lankasterlar va Yorklar davri.

O'rta asrlarda Buyuk Britaniyada Angliya mavzusida yaratilgan ritsarlik romanlari tematik jihatdan xilma-xil va judayam qiziqarlidir. XIII-XIV asrlarda yaratilgan bu romanlarning deyarli hammasi nazmda yozilgan bo'lib, davr shoir va yozuvchilarining ulkan mahorat egasi ekanidan dalolat beradi. Bu ingliz ritsarlik romanlarini mavzu jihatdan 4 kategoriyaga bo'linadi:

1. Fransiya mavzusi; 2. Britaniya mavzusi; 3. Rim mavzusi; 4. Angliya mavzusi;

Boshqa mavzular, ya'ni din, sevgi-muhabbat va do'stlik haqidagi ber nechta romanlarni esa ritsarlik romanlariga kiritish mumkin emas, zero ular janr xususiyatiga ko'ra ritsarlik romanlariga qo'yilgan talablarga javob bermaydi.

Qirol Artur haqidagi afsonalarning shakllanishida keltlar afsonalari juda katta rol o'ynagan. Shu bilan bilan bir qatorda bu turkum ritsarlik romanlarida xristian dini an'analarning ham o'rni ulkan. Artur afsonasining ijtimoiy-madaniy sabablar ta'sirida o'zgarishi bilan Artur obrazining o'zi ham yangi ma'no kasb etadi.

Qirol Arturning dumaloq stoli haqidagi afsonalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ko'p qatlamli madaniy an'analardan tashqari, nasroniylik ularning rivojlanishida juda samarali omil bo'ldi. Britaniya orollari, ayniqsa Irlandiya, juda erta va tinch tarzda xristianlashtirilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Kelt

butparast madaniyati yo‘q qilinmadi, balki nasroniylikni boyitdi, bu esa o‘z navbatida yunon va rim adabiyoti an‘analarini olib keldi va ular bu yerda mustahkam zamin topdilar. Xristianlik tomonidan siqib chiqarilmagan, balki unga moslashgan xalq e‘tiqodlari tufayli Artur afsonalari g‘ayritabiiy, mo‘jizaviy va hayoliy motivlar bilan to‘yingan. Keltlar dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlari xristianlik tufayli yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli ma’lum ma’noda mustahkamlandi.

Qirol Artur afsonasining ijtimoiy-madaniy sabablar ta’sirida o‘zgarishi bilan Artur obrazi ham yangi ma’no kasb etdi. Ilk miflarda uning o‘zi, harakatlari va boshqalar bilan munosabatlari katta qiziqish uyg‘otgan va doim birinchi planda tasvirlangan bo‘lsa, keyingi versiyalarda Artur dumaloq stolning ritsarlaridan biri bo‘lgan va unga ramziy rol berilgan, xolos.

Ritsarlik romanlarining har bir muallifi o‘ziga xos ritsarlik g‘oyasiga va risarlar obrazlarini yaratishning o‘ziga xos usullariga ega, chunki turli romanlarda turlicha stilistik vositalardan foydalanilgan bo‘lib, masalan, “Arturning o‘limi” romanida mubolag‘a va epitetlardan unumli foydalanilgan bo‘lsa, “Qirol Xorn” ritsarlik romanida esa metafora va taqqoslash kabi stilistik vositalar ko‘proq uchraydi.

Ritsarlik romanlari mualliflari qahramonlarning xatti-harakatlari, nutqlari va his-tuyg‘ularini aks ettiradilar. Ular uchun risarlarning jasorati va odilligi, ayollarning go‘zalligi va nazokati, qirol va shahzodalarning kuch-qudrati, dushmanlarning zaif va qo‘rqoqligini o‘z harakatlari va so‘zlari bilan ko‘rsatish muhimroqdir. Buning uchun ular turli stilistik vositalardan unumli foydalanganlar.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ
СТЕПЕНЕЙ PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ИМЕНИ ИСОКХОНА ИБРАТА**

БОЙЧАЕВА ДУРДОНА РАСУЛЖОН КИЗИ

**ТЕМАТИКА И ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СРЕДНЕВЕКОВЫХ
АНГЛИЙСКИХ РЫЦАРСКИХ РОМАНОВ**

10.00.04 – Язык и литература народов Америки, Австралии и Европы

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.3.PhD/Fil3783.

Диссертация выполнена в Государственном университете мировых языков Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.namsifl.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Дадабоев Олимжон Ортикович
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Турсунов Акмал Хамиджонович
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Тураева Бахора Бахриддиновна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Андижанский государственный институт иностранных языков

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета за номером PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 при Наманганском государственном институте иностранных языков «___» _____ 2025 года в _____. (Адрес: Наманганская область, город Туракурган, улица Саодат, дом 28). Тел.: +998 (69) 442-11-67, faks: (e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchti@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного института иностранных языков (регистрационный номер ____). (Адрес: Наманганская область, Туракурганский район, МСГ «Янгиобад», улица Саодат, дом 28. Тел.: +998 (69) 442-11-67, faks: (e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchti@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(Протокол реестра № _____ от «___» _____ 2024 года).

Н.Т.Дусбаева

Председатель Научного совета по присуждению научных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

И.И.Умрзаков

Ученый секретарь Научного совета по присуждению научных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

С.А.Мисиров

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению научных степеней, кандидат педагогических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении устное народное творчество и возникшие вслед за ним ранние письменные художественные тексты в последнее время все более часто становятся объектом научных исследований. Одной из основных причин этого является то, что устные и письменные памятники воплощают в себе неповторимые культурные и национальные символы. В частности, исследование даже имплицитных особенностей структуры английских рыцарских романов, способствуют более глубокому изучению духовных богатств, культурного наследия английского народа, раскрывают духовный образ нации. Начиная с первой четверти XX века, литературоведы начали проводить исследования по уточнению генезиса, морфологии, формы, циклов европейских рыцарских романов, составлению их хронологии, и в этом вопросе также достигнуты существенные результаты. Однако тематика рыцарских романов, а также их жанровые особенности изучены недостаточно, и до сих пор этот вопрос остается вне поля зрения литературоведов. Беспрецедентность влияния средневековой английской литературы, особенно рыцарских романов на творчество писателей эпохи Возрождения, имевшего место в более поздние времена, обуславливает необходимость проведения их разнопланового анализа. Таким образом, изучение тематики и жанровых особенностей английских рыцарских романов, а также их художественно-эстетических задач является одной из актуальных задач, стоящих перед литературоведением.

В мировой литературоведческой науке различные мотивы в рыцарских романах первоначально изучались с этнографической, религиозной, психологической точек зрения, и в этом отношении были достигнуты определенные результаты. В нашей стране был проведен ряд научных исследований по таким вопросам, как выявление историко-мифологических корней различных мотивов в образцах устного народного творчества былинах – эпосах, равнозначных рыцарским романам, определение того, какие художественно-эстетические задачи они выполняют в процессе перехода от мифологических представлений к поэтическому мышлению.

В нашей стране особое внимание уделяется новому подходу к бессмертным образцам литературного творчества других народов, их исследованию с позиций наших национальных и исторических ценностей. Ведь духовность ни одной нации или народа невозможно представить без их истории, специфических обычаев и традиций, жизненных ценностей, что ставит перед наукой актуальную задачу изучения их литературного творчества в различных планах, как частных, так и общих.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», УП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Нового

Узбекистана на 2022 – 2026 годы» и иных нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики И. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы.

В западном литературоведении ряд научных трудов таких литературоведов, как А.Х. Билингс, И. Брюер, Дж.А. Бероу, П. Бойтани, Дж.Д. Брюс, Л. Рэмси, был посвящен изучению средневекового английского рыцарского романа¹. Также такие ученые, как И Бишоп, М.У Блумфилд, М. Бороф² в своих статьях исследовали роман того же периода «Сэр Гавейн и Зеленый Рыцарь».

В русском литературоведении поэтика английских рыцарских романов 13-14 веков практически не изучалась, за исключением научной работы О.Л. Мошанской³. К исследованию были привлечены лишь некоторые романы этого периода. В частности, языковые особенности и вопросы сюжета и композиции романа «Сэр Гавейн и Зеленый Рыцарь» рассмотрены в научных исследованиях М.В. Оверченко, Е.Ю. Пятаковой, М.А. Волконской, Н.В. Резниковой, М.К. Поповой⁴, а также в статьях Г.В. Колгановой⁵. В статьях В.И. Матузовой и М.К. Поповой⁶ исследованы

